

“INTERYER-DIZAYN” SOHASIGA OID TERMINLARINING LISONIY TADQIQI

Xolmurotova Gulnora Sattorovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

LINGUISTIC STUDY OF TERMS RELATING TO THE FIELD OF “INTERIOR DESIGN”

Xolmurotova Gulnora Sattorovna

Teacher of the Denau institute of entrepreneurship and pedagogy

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕРМИНОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ОБЛАСТИ «ДИЗАЙН ИНТЕРЬЕРА»

Холмуротова Гульнора Сатторовна

преподаватель Института предпринимательства и
педагогики Денов

Annotatsiya: Mazkur maqola tilshunoslikda sohaviy terminologiyaning muammolariga, jumladan, interyer dizayn sohasi terminologiyasini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, unda zamonaviy terminshunoslikning antropotsentrik yo‘nalishini hisobga olgan holda, terminologiyaning tarkibiy-semantik xususiyatlaridan tashqari, terminning kasbiy ong va tafakkurni qanday aks ettirishi hamda milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etishi haqida ham ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: maxsus leksika, termin, interior designer, geterogen.

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам отраслевой терминологии в лингвистике, в том числе комплексному исследованию терминологии в области дизайна интерьера. В ней также представлена информация о том, как термин отражает профессиональное сознание и мышление, а также особенности национального менталитета, помимо структурных и семантических особенностей терминологии, с учетом антропоцентрической направленности современной терминологии.

Ключевые слова: специальная лексика, термин, дизайнер интерьера, гетерогенность.

Abstract: This article is devoted to the problems of terminology in linguistics, including a comprehensive study of the terminology of the field of interior design. Also, taking into account the anthropocentric direction of modern terminology, in addition to the structural-semantic features of the terminology, it also provides information about how the term reflects the professional consciousness and thinking, as well as the specific features of the national mentality.

Keywords: special lexicon, term, interior designer, heterogeneous.

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ

/

INTRODUCTION). Maxsus lug‘atning paydo bo‘lishi bilimlarning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqidir, chunki fan taraqqiyoti muqarrar ravishda o‘rganilayotgan ob‘ektlarni belgilash uchun maxsus so‘zlarning paydo bo‘lishi bilan birga keladi. Grinev-Grinevich ta‘kidlaganidek, maxsus lug‘at “til rivojlanishi bilan xalqning moddiy va ma‘naviy

madaniyati tarixi o‘rtasidagi bog‘liqlikni” [3;6] aniq ko‘rsatib beradi. Maxsus lug‘atlar tadqiqiga chuqur to‘xtalsak, ular qadim zamonlardan beri turli madaniyatlarga mansub bo‘lgan va tsivilizatsiya rivojlanishining turli bosqichlarida turgan xalqlar tomonidan qo‘llanilgan. Dastavval, maxsus belgililar ovchilar, meva yig‘uvchilar, chorvadorlar,



E-mail:

gulnoraxolmurodova5@gmail.com
<https://orcid.org/0001-0009-9100-2718>

Tel: +998 99 428 84 74


keyinchalik hunarmandlar, musiqachilar, rassomlar, notiqlar va jangchilar orasida paydo bo‘lgan.

ADABIYOTLAR T AHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Dastavval, tilshunoslikda “interyer-dizayn” sohasiga oid terminlar tadqiqi bir qator xorijlik va mahalliy olimlar (C. Alexander, C.A. Jencks, A.S. Grinev, A.Z. Abduraxmanova, M.M. Bekmurodov, N.Sh. Saloydinova va b.)ning arxitektura va qurilish terminlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida uchragan. A.S. Grinevning “Ingliz va rus arxitektura terminologiyasining qiyosiy tahlili” [2] asari me’morchilik terminologiyasining qiyosiy rasmiy-strukturaviy tahliliga, D.Z. Gaynutdinovaning “Arxitektura va qurilish subtilining termin-metaforasi: tizimli-strukturaviy va kognitiv-diskursiv yondashuvlar” [1] tadqiqoti arxitektura va qurilish termin-metaforalarining tizimli-strukturaviy va kognitiv xususiyatlarini o‘rgangan. Keyinchalik, dizayn terminologiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar ham paydo bo‘la boshladi. Xusan, N.L. Tuxarelining “Rus tilining leksik tizimidagi dizayn terminologiyasi” [5] dissertatsiyasida dizayn terminologiyasining leksik-semantik va so‘z yasalish xususiyatlari, A.S. Djumagalievaning “Lingvosemiotika landshaft dizayni nutqi (ingliz tili asosida)” [4] dissertatsiyasida ingliz tili nutqidagi peyzaj dizaynining verbal va noverbal turdagи belgilarini qo‘llanishi o‘rganilgan. Maqola maqsadini amalga oshiish uchun lingvistik tavsiflash, tarixiy-

etimologik, komponent tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Uyg‘onish davrida *designo* (ital.) atamasi rassomlar, me’morlar, haykaltaroshlar tomonidan o‘zlarining ijodiy faoliyatida - rejalashtirish, loyihalash, san’at asarlarini yaratishda qo‘llanilgan. “Interyer dizayn” sohasidagi terminologiya – bu interyer dizayni sohasidagi tegishli ilmiy va kasbiy faoliyat to‘g‘risida zarur ma’lumotlarni aks ettiruvchi arxitektura va dizayn bo‘yicha maxsus matnlar va leksikografik materiallar tizimi. Izohli lug‘atlarda “dizayn” va “interyer” so‘zleri nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. N.M. Shanskiyning etimologik lug‘atida, “interyer” so‘zi frantsuz tili orqali kirib kelgan (XX asrning birinchi yarmida fran. “intérieur”), aslida lotincha “interior”dan kelib chiqqan [6; 148]. T.F. Efremovaning izohli lug‘atida: “Interyer - bu arxitektura va badiiy jihatdan yaratilgan har qanday xonaning ichki qismi. 2. Xonaning ichki qismi tasviri”, deb ta’rif berilgan. “Arxitektura” va “til” yoki “dizayn” va “til” bir-biriga bog‘liq va bu bog‘liqlik tasodifiy emas, chunki ikkalasi o‘rtasida yakkama-yakka o‘xshashlik bor. Bu bog‘lanish rasmiy (formal) elementlar (lug‘at), strukturaviy elementlar (grammatika), ma’no elementlari (semantika) va muhit elementlari (kontekst) qiyoslanishida mujassamlanadi (1-rasm). Interyer dizaynning yangi bo‘linmasi sifatida Interyer mebel dizayni me’moriy makonga tegishli bo‘lib, bu bog‘liqlik o‘ziga xosdir.



Rasm 1. Til va ichki mebel dizayni o‘rtasidagi o‘xshashlik

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Arxitektura nutqining bir qismi bo‘lgan “Interyer dizayn” sohasining terminologiyasi yuqori ixtisoslashgan terminlar, umumiyl ilmiy terminlar va umumiyl lug‘atni birlashtirgan nominatsiyalar tizimidir. Interer dizayni sohasidagi terminologiya heterojen tarzda rivojlanmoqda. “Interyer dizayn” sohasi terminologiyasi texnik bilimlar sohasi

(qurilish, muhandislik, elektrotexnika va b.), estetika sohasi (arkitektura, tasviriy san’at, amaliy san’at, rangshunoslik), materiallar sohasi (mebel ishlab chiqarish, o‘rmonchilik, to‘qimachilik sanoati va b.), inson haqidagi bilim sohasi (ergonomika)larni o‘z ichiga oladi. Quyida bu turlarga ingliz va o‘zbek tillarida umumiyl misollar keltiramiz:

Turlari	Inglizcha	O'zbekcha
Arxitektura	horseshoe arch, pilaster, Palladian window, architrave, astragal, atrium, balustrade, bull's-eye window, hopper window, winding staircase	taqa kamar, pilaster, Palladian oynasi, arxitrav, astragal, atrium, balyustrada, buqa oyna, huni oynasi, aylanma zinapoya
Qurilish	finish, plaster, pebbledash wall, adobe, airbrick, glass brick, baluster, parquet floor	Finish (oxiri), gips, qo'pol silliqlangan devor yuzi, somon, xom g'isht/ somon suvoqli paxsa uy, ichi bo'sh g'isht, shisha blok, ustuncha, parket pol
Tasviriy va dekorativ san'at	sketch, distressing, sponging, modular art, spattering	eskiz, patinatsiyalangan, devorni shimgich bilan bezash, modulli san'at, dekorativ sepish texnikasi
Elektr va yoritish muhandisligi	ampere, additional conductorm, circuit, distribution network, xenon arc lamp	amper, qo'shimcha tok o'tkazgich, elektr sxemasi, tok tarqatish tarmog'i, ksenon yoy chiroq
Rang haqida	warm colour, colour wheel, tone, hue, colour harmony, monochromatic colours	yorqin rang, rang g'ildiragi, ton, rang soyasi, rang uyg'unligi, bir tusdagi rang
To'qimachilik ishlab chiqarish va gilam to'qish	angora, calico, cheviot, organza, quilt, linen cloth, sateen, nylon fiber, synthetic fiber, Anatolian Rugs, Indian rugs	angora, kolenkor kaliko, sheviot, organza, qavilgan mato, surp, satin, neylon tola, sintetik tola, Anadolu gilamlari, hind gilamlari
Ergonomika	user-performance approach, human-centered design, human factors and ergonomics principles (HFE). (foydalananuvchining ishlashiga e'tibor qaratish), (insonga yo'naltirilgan dizayn), (inson omillari va ergonomika tamoyillari).	foydalananuvchi ishlashi yondashuvi, insonga yo'naltirilgan dizayn, inson omillari va ergonomika tamoyillari (HFE).
O'rmon xo'jaligi	oriental walnut, softwood, treated lumber	sharqona yong'oq, yumshoq yog'och, qayta ishlangan yog'och
Mebel ishlab chiqarish	flap table, end table, side chair, sofa bed, alcove cupboard, armoire, banquette, breakfast table.	yig'iladigan stol, yon stol, qo'litiqsiz stul, divan karavot, alkov shkafi to'shak solinadigan shkaf/tahmon), kiyim soladigan shkaf, banketka, nonushta stoli.

XULOSA / CONCLUSION). “Interyer dizayn” sohasi terminologiyasining asosiy xususiyati uning heterojen tarkibidir. O'rganilayotgan terminologiyaga yuqori ixtisoslashgan terminlar, umumiy texnik va ilmiy terminlar, keng tarqalgan ishlatiladigan lug'at, shuningdek, boshqa sohalardan olingan terminlardir. Bu “Interyer dizayn” yo'nalishi negizida boshqa kasbiy yo'nalishlar: arxitektura,

qurilish, dekorativ-amaliy san'at, rang, o'rmonchilik, mebel ishlab chiqarish, elektrotexnika, to'qimachilik, ishlab chiqarish, ergonomikalarni o'rganishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Гайнутдинова Д.З. Термин-метафора архитектурно-строительного подъязыка:

- системно-структурный и когнитивно-дискурсивный подходы: дис. ... канд. фил. наук. – Белгород, 2012. – 191 с.
2. Гринев А.С. Сопоставительный анализ английской и русской архитектурной терминологии: На материале тематического поля "Теория и история архитектуры": автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2004. – 20 с.
3. Гринев-Гриневич С. В. Терминоведение. – Москва: Изд. центр «Академия», 2008. – 304 с.
4. Джумагалиева А.С. Лингвосемиотика дискурса ландшафтного дизайна: на материале английского языка: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2014. – 22 с.
5. Тухарели Н.Л. Терминология дизайна в лексической системе русского языка: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1994. – 28 с.
6. Шанский Н.М., Боброва Т.А. Этимологический словарь русского языка – Москва: Прозерпина: Школа, 1994. – 400 с.



TAMADDUN NURI